



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-yanvar

44-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi PQ–20-son qarori ijrosi haqida”gi 36-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

Elektrotexnika sanoati va unga yondosh sohalarni rivojlantirish, yuqori texnologiyali hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, ilmiy-tadqiqot va tajriba - konstruktorlik ishlarini sohaga keng joriy etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi PQ–20-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-yanvardagi 36-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-yanvardagi 36-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi PQ–20-son qarori bilan:

Elektrotexnika sanoatini 2025-2027-yillarda rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilanganligi:

tarmoqda qo‘shilgan qiymat ulushini o‘rtacha 21 foizdan 30 foizga va ishlab chiqarish hajmini 58 trillion so‘mga yetkazish;

qayta ishlash jarayonlariga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va diversifikatsiya qilish hisobiga eksport hajmini 3,0 milliard AQSH dollariga yetkazish;

yuqori texnologiyalarga asoslangan elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarishni rag‘batlantirish hamda innovatsion g‘oyalarni joriy etishni qo‘shimcha rag‘batlantirish orqali umumiy qiymati 4,0 milliard AQSH dollari miqdoridagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, raqamli boshqaruv tizimini joriy etish orqali mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish;

quyidagilar:

Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishning 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

Elektrotexnika sanoatida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish dasturi doirasida 2025-2027-yillarda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini ishga tushirishning yig‘ma parametrlari 2-ilovaga muvofiq;

Elektrotexnika mahsulotlarini mahalliy ishlab chiqaruvchilar va ularning rasmiy dillerlari hamda distribyutorlaridan xarid qilishning 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq;

Elektrotexnika sanoati va unga yondosh sohalarni rivojlantirish, yuqori texnologiyali hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, yuqori qo‘shilgan qiymatli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rag‘batlantirish uchun qulay moliyaviy sharoitlar yaratish maqsadida

2025-yil 1-fevraldan quyidagi qo‘llab-quvvatlash choralari joriy etilishi:

a) bojxona hududida qayta ishlash rejimida tayyorlangan mahsulotlarni keyingi ishlab chiqaruvchilar tomonidan sanoat kooperatsiyasi tartibida qayta ishlash uchun bojxona hududida qayta ishlash rejimiga joylashtirishga ruxsat berilishi;

b) korxonalarining rivojlanish va tadqiqot markazlari (R&D) faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha o‘z ehtiyojlari uchun olib kelinadigan, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan laboratoriya jihozlari va anjomlari 2028-yil 1-fevralga qadar bojxona bojidan ozod etilishi;

d) ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarning va davlat organlarining ma‘muriy bino-inshootlarini, shuningdek ijtimoiy soha obyektlarini qurish bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga quyidagi talablar kiritilishi:

pudratchilar zarur tovarlarni Ishlab chiqaruvchilar ekotizimi va/yoki Elektron kooperatsiya portalidagi (keyingi o‘rinlarda – portallar) mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilishi;

zarur tovarlar portallarda mavjud bo‘lmasa, tasdiqlovchi ma‘lumotnomalar asosida ularni boshqa elektron portallardan xarid qilishga ruxsat etilishi;

e) Ishlab chiqaruvchilar ekotizimida savdolar davlat buyurtmachilari va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida elektron do‘kon tartib-taomillari asosida, shartnoma qiymati bilan bog‘liq cheklovlersiz o‘tkaziladi, bunda ofertalar mahalliy ishlab chiqarilgan tovar to‘g‘risidagi sertifikat ma‘lumotlari asosida shakllantirilishi;

belgilab qo‘yilganki, 5-ilovaga muvofiq yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni joriy etgan elektrotexnika sanoati korxonalariga yuqori texnologiyali ishlab chiqarish obyekti foydalanishga qabul qilingan sanadan e‘tiboran uch yil muddatga quyidagi soliq imtiyozlari berilishi:

yuqori texnologiyalar asosida mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan daromadlari qismida foyda solig‘ining nol darajali stavkasini qo‘llash;

yuqori texnologiyali ishlab chiqarish obyektlari egallagan yer uchastkalari bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lashdan ozod etish; Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va Savdo-sanoat palatasining elektrotexnika sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun elektrotexnika sanoati korxonalarini tomonidan ommaviy savdolar orqali sotib olinadigan davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha to‘lovlarni 10 yilgacha muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda “O‘zeltexsanoat” uyushmasining ilg‘or texnologiyalar asosida yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish hamda soha uchun muhandis va o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash maqsadida “Eltech Lab” mas‘uliyati cheklangan jamiyati tarkibida ilg‘or injiniring markazini (tarkibiy bo‘linma) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Markaziy bank, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hamda “O‘zeltexsanoat” uyushmasining quyidagi takliflari ma‘qullanganligi:

a) 2025-2027-yillarda “O‘zeltexsanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalarining mahalliy kapital bozorida qisqa (1 yilgacha) va o‘rta (5 yilgacha) muddatli obligatsiyalarini joylashtirish va xalqaro kapital bozorlarida 2 ta tarmoq korxonasining yevro obligatsiyalarini chiqarish hisobiga resurs jalb qilishi, bunda korxonalarining qimmatli qog‘ozlari chiqarilishini tashkil qilish uchun tijorat banklarini moliyaviy konsultant sifatida jalb etish;

b) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB orqali 150 million AQSH dollari hamda boshqa tijorat banklari orqali 100 million AQSH dollari miqdorida, xorijiy valyutada yillik 8 foizdan ko‘p bo‘lmagan stavkada kredit liniyalarini ochish;

d) Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasidan elektrotexnika sanoati korxonalarini loyihalarini moliyalashtirish va aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun mablag‘larni maqbullashtirish hisobidan 2025-2026-yillarda tijorat banklariga ularning buyurtmasiga asosan 1,5 yil muddatga xorijiy valyutada yillik 7 foiz stavkada (shundan 2 foizi bank marjasi), milliy valyutada yillik 18 foiz stavkada (shundan 4 foizi bank marjasi) 50 million AQSH dollari miqdorida mablag‘larni yo‘naltirish;

e) elektrotexnika tarmog'ida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalariga O'zbekiston Respublikasining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi mablag'lari hisobidan 25 million AQSH dollari miqdorida mablag' yo'naltirish;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda "O'zeltexsanoat" uyushmasining quyidagi takliflari ma'qullanganligi:

a) yuridik shaxslarga Ohangaron tumani, Farg'ona va Urganch shaharlaridagi texnoparklarda yer uchastkasini elektron onlayn auksion savdolari orqali ijaraga olib tayyor holda bino-inshootlarni qurish va elektrotexnika hamda unga yondosh bo'lgan tarmoq korxonalariga sotish yoki bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotish yoxud ijara shartlarida to'g'ridan-to'g'ri realizatsiya qilishga ruxsat berishi;

bunda bino-inshootlarni xarid qilgan yoki ijaraga olgan tadbirkorlarra "Eltech Industrial" texnoparkini boshqarish direksiyasi" davlat muassasasi bilan tuziladigan investitsiya bitimiga muvofiq "Eltech Industrial" texnoparki ishtirokchisi maqomi berilishi;

b) ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida qurilgan tayyor bino-inshootlarni xarid qilish uchun tadbirkorlarga o'rnatilgan tartibda Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 7 yil muddatgacha, shundan 2 yilgacha imtiyozli davr bilan milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada kredit ajratish;

d) elektrotexnika tarmog'i korxonalarini ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlarini lizing asosida sotish, bunda:

mazkur maqsadlar uchun 2025-yilda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-yanvardagi "Elektrotexnika sanoatining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ – 15-son qaroriga asosan elektrotexnika sanoati uchun ajratilishi nazarda tutilgan mablag'lar hisobidan 30 million AQSH dollari yo'naltirilishi;

ushbu mablag'lar tijorat banklariga ularning buyurtmasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasida milliy valyutada 5 yil muddatga ajratilishi;

mahalliy elektrotexnika mahsulotlarini sotish bo'yicha lizing xizmatlarini ko'rsatishda tijorat banklarining marjasi yillik 4 foizdan oshmagan miqdorda o'rnatilishi;

lizing shartnomalari doirasida tadbirkorlik subyektlari lizing obyektining 15 foizi miqdorida avans to'lovlarini o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirishi belgilanishi;

quyidagilar:

mazkur qarorning 2-bandida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning bajarilishini ta'minlashga Bosh vazir o'rinbosari J.Xodjayev, "O'zeltexsanoat" uyushmasi raisi M.Yunusov, Savdo-sanoat palatasi raisi D. Vaxabov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari hamda vazirlik, idora va tashkilotlar rahbarlari birdek mas'ul va javobgar hisoblanishi;

mazkur qarordagi moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarining bajarilishini ta'minlash bo'yicha shaxsiy javobgarlik iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosari A.Xaydarov hamda Savdo-sanoat palatasi raisi D.Vaxabov zimmasiga yuklatilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 7-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi e'tiborga olinsin.

3. Namangan viloyati hokimining mazkur qarori bilan viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha yordamchisi, Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (O.Akbarov) Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullayev) hamda Namangan shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda maxsus elektrotexnika, oziq-ovqat, to'qimachilik va charm mahsulotlari uchun distributsiya-logistika markazlarini tashkil qilish va faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha kelishilgan taklifni viloyat hokimligiga kiritishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi PQ–20-son qarorining 2-bandida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning bajarilishini ta'minlashga tuman hokimning o'rinbosari – Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi boshlig'i S.Egamberdiyev, idora va tashkilotlar rahbarlari birdek mas'ul va javobgar hisoblansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov, tuman hokimning o'rinbosari – Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov